XALQ DEPUTATLARI SHOVOT TUMANI KENGASHI
QAROR

2021 - yil 31 - dekabr VI-50-69-12-177-K/21 Shovot tuman hokimligi

Shovot tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2021 yil 31 dekabrdagi “2022 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-40-60-12-0-K/21-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30 dekabrdagi 02/38/40-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Shovot tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2021 yil 31 dekabrdagi “2022 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2021 yil 31 dekabrdagi “2022 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Shovot tuman mahalliy budjetining 2022 yil uchun daromadlari 92 661,0 mln.so‘m, xarajatlari 199 604,0 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 106 943,0 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun Shovot tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.2022 yil uchun Shovot tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet

mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2022 yil uchun Shovot tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.2022 yil uchun Shovot tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.2022 yil uchun viloyat budjetidan Shovot tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8.2022 yil uchun Shovot tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari
1 883,0 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

9.2022 yil uchun Shovot tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10.Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorga 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

11.Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

12.O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2021 yil 31 dekabrdagi “2022 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

VI-40-60-12-0-K/21-sonli qaroriga muvofiq 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) Shovot tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat va tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

13.Shovot tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Yakubov), Moliya bo‘limi (D.Abdullayev), Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) mas’ul

tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14.Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib;

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15.Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev), Kadastr agentligining Davlat

kadastrlari palatasi Shovot tumani filiali boshlig‘i (Z.Ro‘zimov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

16.Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17.Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi Shovot tuman bo‘limi boshlig’i, Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

18.Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (I.Xajiyev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

19.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Yakubov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini “ye-ijro auksion” mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

20.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Yakubov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21.Shovot tuman irrigatsiya bo‘limi (U.Do‘schanov) va tuman soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (B.Shukurboyev) bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22.Shovot tuman moliya bo‘limi (D.Abdullayev):

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib

borilsin.

23.Xalq deputatlari tuman Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24.Shovot tuman hokimligi:

Shovot tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Shovot tuman xalq deputatlari, tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25.Shovot tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Yakubov), tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26.Shovot tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

27.Shovot tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28.Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Yakubov) hamda xalq deputatlari Shovot tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (G.Dosova) zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Shovot tuman Kengashi deputati, sessiya raisi **Ruzmetov U. S.**

Халқ депутатлари Шовот туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
1-илова

2022 yil uchun Shovot tumani bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

Daromad turlari		**ming. so‘m**
1	Foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 058 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	20 157 500
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	927 000
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	7 462 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 906 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 871 000
8	Yer solig‘i	16 472 000
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	157 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 564 000
11	Davlat boji	
12	Jarimalar	
13	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	
14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	260 000
15	Yig‘imlar	
JAMI		**64 834 500**
	Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar	**27 826 459**
	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	10 532 017
	Mobil aloqa xizmati	6 000 168
	Tamaki mahsulotlari	11 294 274
Jami daromad		**92 660 959**

Халқ депутатлари Шовот туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
2-илова

2021 yil uchun Shovot tumani budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**199 603 959,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**199 603 959,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	**0,0**
	ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar miqdorlarini va ayrim xizmat turlari bo‘yicha tariflarni oshishi bilan bog‘liq xarajatlar	**0,0**
1	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**14 186 170,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 186 170,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**18 014 030,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 014 030,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Tibbiyot bo‘limi**	**63 325 059,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	63 325 059,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Madaniyat bo‘limi**	**2 003 307,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 003 307,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**4 210 116,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 210 116,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi**	**10 588 987,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 588 987,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

9	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**939 938,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	939 938,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 225 391,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 225 391,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Moliya bo‘limi**	**861 746,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	861 746,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
	ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar miqdorlarini va ayrim xizmat turlari bo‘yicha tariflarni oshishi bilan bog‘liq xarajatlar	
12	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 741 447,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 741 447,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi**	**640 649,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	640 649,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Hokimiyat**	**81 867 119,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	81 867 119
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Халқ депутатлари Шовот туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
3-илова

Umumdavlat soliqlaridan Shovot tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi-dan soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Ijara to‘lovlari
1	Shovot tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Халқ депутатлари Шовот туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
4-илова

Shovot tuman mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Shovot tumani	92 660 959,0	199 603 959,0

Халқ депутатлари Шовот туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
5-илова

Shovot tuman mahalliy budjetining 2022 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
1	Shovot tumani	106 943 000,0

Халқ депутатлари Шовот туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
6-илова

Shovot tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Shovot tumani	838 000,0

Халқ депутатлари Шовот туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
7-илова

Shovot tumanida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2021 yil 31 dekabrdagi VI-40-60-12-0-K/21-sonli qaroriga asosan belgilangan soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Mahalla nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil 1 (bir) gektar uchun so‘mda
1	Bunyodkor mahallasi	1,07	33 202 100
2	Do‘stlik mahallasi	1,07	33 202 100
3	Istiqbol mahallasi	1,07	33 202 100
4	Paxtakor mahallasi	1,07	33 202 100
5	Shovot mahallasi	1,07	33 202 100
6	Zamandosh mahallasi	1,07	33 202 100
7	Turkiston mahallasi	1,07	33 202 100
8	Yangiobod mahallasi	1,07	33 202 100
9	Arbek mahallasi	1,07	33 202 100
10	Arbob mahallasi	1,07	33 202 100
11	Asavey mahallasi	1,07	33 202 100
12	Archazor mahallasi	1,07	33 202 100
13	Beshmergan mahallasi	1,07	33 202 100
14	Beshchig’ir mahallasi	1,07	33 202 100
15	Botirlar mahallasi	1,07	33 202 100
16	Bog‘bon mahallasi	1,07	33 202 100
17	Bo’yrachi mahallasi	1,07	33 202 100
18	Bo’ston mahallasi	1,07	33 202 100
19	Guliston mahallasi	1,07	33 202 100
20	Gulshan mahallasi	1,07	33 202 100

21	Idaliqal’a mahallasi	1,07	33 202 100
22	Ijtimoyat mahallasi	1,07	33 202 100
23	Ipakchi mahallasi	1,07	33 202 100
24	Katqal’a mahallasi	1,07	33 202 100
25	Komiljon Otaniyozov mahallasi	1,07	33 202 100
26	Qunduz mahallasi	1,07	33 202 100
27	Qangli mahallasi	1,07	33 202 100
28	Qiyot mahallasi	1,07	33 202 100
29	Qirg‘oq bo’yi mahallasi	1,07	33 202 100
30	Qumyop mahallasi	1,07	33 202 100
31	Qo‘shko’pir mahallasi	1,07	33 202 100
32	Madaniyat mahallasi	1,07	33 202 100
33	Mahtumquli mahallasi	1,07	33 202 100
34	Mevazor mahallasi	1,07	33 202 100
35	Monoq mahallasi	1,07	33 202 100
36	Navro’z mahallasi	1,07	33 202 100
37	Ogahiy mahallasi	1,07	33 202 100
38	Oydin mahallasi	1,07	33 202 100
39	Oq ko‘l mahallasi	1,07	33 202 100
40	Oq oltin mahallasi	1,07	33 202 100
41	Oltinqal’a mahallasi	1,07	33 202 100
42	Ostona mahallasi	1,07	33 202 100
43	Po‘lat mahallasi	1,07	33 202 100
44	Royat mahallasi	1,07	33 202 100
45	Taraqqiyot mahallasi	1,07	33 202 100
46	Tukmang’it mahallasi	1,07	33 202 100
47	Tuproqqal’a mahallasi	1,07	33 202 100
48	Uzunko‘l mahallasi	1,07	33 202 100

49	Xitoy mahallasi	1,07	33 202 100
50	Xunarmand mahallasi	1,07	33 202 100
51	Chig‘atoy mahallasi	1,07	33 202 100
52	Eshonqal’a mahallasi	1,07	33 202 100
53	Yangi burloq mahallasi	1,07	33 202 100
54	Yangi yo‘l mahallasi	1,07	33 202 100
55	Yangi turmush mahallasi	1,07	33 202 100

Халқ депутатлари Шовот туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
8-илова

Shovot tumanida jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2021 yil 31 dekabrdagi VI-40-60-12-0-K/21-sonli qaroriga asosan 1 kv.m. uchun belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Maxalla nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun 1(bir) kv.m uchun so‘mda
1	Bunyodkor mahallasi	1,07	298
2	Do‘stlik mahallasi	1,07	298
3	Istiqbol mahallasi	1,07	298
4	Paxtakor mahallasi	1,07	298
5	Shovot mahallasi	1,07	298
6	Zamandosh mahallasi	1,07	298
7	Turkiston mahallasi	1,07	298
8	Yangiobod mahallasi	1,07	298
9	Arbek mahallasi	1,07	298
10	Arbob mahallasi	1,07	298
11	Asavey mahallasi	1,07	298
12	Archazor mahallasi	1,07	298
13	Beshmergan mahallasi	1,07	298
14	Beshchig’ir mahallasi	1,07	298
15	Botirlar mahallasi	1,07	298
16	Bog‘bon mahallasi	1,07	298
17	Bo’yrachi mahallasi	1,07	298
18	Bo’ston mahallasi	1,07	298
19	Guliston mahallasi	1,07	298

20	Gulshan mahallasi	1,07	298
21	Idaliqal’a mahallasi	1,07	298
22	Ijtimoyat mahallasi	1,07	298
23	Ipakchi mahallasi	1,07	298
24	Katqal’a mahallasi	1,07	298
25	Komiljon Otaniyozov mahallasi	1,07	298
26	Qunduz mahallasi	1,07	298
27	Qangli mahallasi	1,07	298
28	Qiyot mahallasi	1,07	298
29	Qirg‘oq bo’yi mahallasi	1,07	298
30	Qumyop mahallasi	1,07	298
31	Qo‘shko’pir mahallasi	1,07	298
32	Madaniyat mahallasi	1,07	298
33	Mahtumquli mahallasi	1,07	298
34	Mevazor mahallasi	1,07	298
35	Monoq mahallasi	1,07	298
36	Navro’z mahallasi	1,07	298
37	Ogahiy mahallasi	1,07	298
38	Oydin mahallasi	1,07	298
39	Oq ko‘l mahallasi	1,07	298
40	Oq oltin mahallasi	1,07	298
41	Oltinqal’a mahallasi	1,07	298
42	Ostona mahallasi	1,07	298
43	Po‘lat mahallasi	1,07	298
44	Royat mahallasi	1,07	298
45	Taraqqiyot mahallasi	1,07	298
46	Tukmang’it mahallasi	1,07	298
47	Tuproqqal’a mahallasi	1,07	298

48	Uzunko‘l mahallasi	1,07	298
49	Xitoy mahallasi	1,07	298
50	Xunarmand mahallasi	1,07	298
51	Chig‘atoy mahallasi	1,07	298
52	Eshonqal’a mahallasi	1,07	298
53	Yangi burloq mahallasi	1,07	298
54	Yangi yo‘l mahallasi	1,07	298
55	Yangi turmush mahallasi	1,07	298

Халқ депутатлари Шовот туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-69-12-177-K/21-сон қарорига
9-илова

Xorazm viloyati yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 2022 yil uchun belgilangan minimal

MIQDORLAR

T/R	**Shahar, tumanlar nomi**	**Yuridik shaxslarning bino va nshootlarining 1 kv.metr uchun mutloq miqdor, so‘mda**	**Koeffitsient (*0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsent)***	**Yuridik shaxslarning bino va inshootlarining 1 kv.metr uchun soliq bazasi, so‘mda**
1	Shovot tuman	1 000 000	1,0	1 000 000